



2024 YIL

13 IYUN

TA'LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: HOLATI VA ISTIQBOLLARI



respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi materiallari to'plami

Toshkent - 2024

“Ta’limda raqamli transformatsiya: holati va istiqbollari” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi (2024-yil 13-iyun, Toshkent, O‘zbekiston)

УДК 370:681.142.37 ББК 74:73 Т 17

MAS’UL MUHARRIR:

Qirg‘izboyev A.K. -
TDPU rektori, tarix fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI RAISI:

Abdullayeva B.S. - TDPU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, p.f.d., professor

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI:

Mamarajabov M.E.

DSc, professor

Umarova Z.A.

PhD, dotsent

Kudratov K.K.

PhD, dotsent v.b.

Samandarov J.I.

PhD, dotsent v.b.

Ahmedov A.M.

PhD, dotsent v.b.

Adinayev Sh.Sh.

dotsent v.b.

Nazarov I.U.

PhD, dotsent v.b.

Urinboyeva L.U.

dotsent

Tuxtamatov X.R.

dotsent

Yusupova G.Yu.

dotsent v.b.

Saidova Z.R.

tayanch doktorant

Mallayev R.Q.

PhD, dotsent v.b.

Mehmonov R.Yu.

katta o‘qituvchi

Mirzahmedova N.D.

katta o‘qituvchi

Bakiyeva F.R.

o‘qituvchi

TAQRIZCHILAR:

Ergashov M. – t.f.d., professor

Yuldashev U. – t.f.d., professor

To‘plam muharrirlari: Mamarajabov M.E., Umarova Z.A., Yusupova G.Yu, Kudratov K.K., Saidova Z.R.

Ushbu to‘plam Toshkent davlat pedagogika universitetida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug‘i asosida joriy yilning 13-iyun kuni Toshkent davlat pedagogika universiteti Matematika va ta’limda axborot texnologiyalari kafedrasini tomonidan tashkil etilgan “Ta’limda raqamli transformatsiya: holati va istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan iborat.

To‘plamda joy olgan tezislarda keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar javobgardirlar.

Badriddinova Barno	ISHLASHIDA MUSIQANING KORREKSION O'RNI	
Musayev Norimbay Usmanovich Ishanxanova Muslima	MAQOM SAN'ATINING O'QUVCHI YOSHLARNI TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI	616
Musayev Norimbay Usmanovich Jurayeva Riya	UMUMTA'LIM MAKTABIDA AN'ANAVIY XONANDALIKNING TARBIYAVIY AHAMIYATI	618
Umarova Ayman Iles qizi Maxkambaev Aziz	MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA TA'LIMI VA TARBIYASINING MAQSAD HAMDA VAZIFALARI	623
Umarova Ayman Iles qizi Raxmonova Umida	RAQS TUSHUNCHASINING IJTIMOYIY O'RNI, UNING ESTETIK VA MAN'ANAVIY OMILLARI	627
Xujamkulov Pirimkul Tashmetova Samira	MUSIQA DARSLARIDA XOR IJROCHILIGINING AHAMIYATI	631
Xujamkulov Pirimkul Tashmetova Samira	DIRIJERLIK SAN'ATINING MUSIYADAGI AHAMIYATI	632
Yunosov Odil G'aybullayevich Klitbekova Go'zal Manas qizi	O'ZBEK XALQ MILLIY MUSIQIY MEROSINING TALABA YOSHLARNI MA'NAVIY AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKILLANTIRISHDAGI O'RNI	636
Qayumov Javohir Sodikxo'ja o'g'li Mirzoulugova Sitorabonu	O'QUVCHILARDA XONANDALIK ASARLARNI ERKIN VA IFODALI KUYLATISH USLUBLARI	641
Qayumov Javohir Sodikxo'ja o'g'li Raimjonova Sevinchbonu	USTOZ SHOGIRT "AN'ANASINI INDIVIDUAL TA'LIM TAMOYILI ASOSIDA O'RGATISH METODIKASI	646
Dusmatov Ulug'bek Begmatovich	GLOBALLASHGAN VA TEZKOR RIVOJLANISH DAVRIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI	650
Azimov Davron G'ayratovich	BOLALAR XOR JAMOALARIDA HOZIRGI KUNDA OLIB BORILADIGAN O'QUV-TARBIYAVIY ISHLAR	655

**GLOBALASHGAN VA TEZKOR RIVOJLANISH DAVRIDA
QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI**

Dusmatov Ulug‘bek Begmatovich

T.N.Qori-Niyoziy nomidagi

O‘zbekiston Respublikasi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot
instituti Qoraqalpog‘iston filiali mustaqil tadqiqotchisi



Biz bilamizki, dunyoda o‘ziga xos qadriyatlari bo‘lmagan millat yo‘q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma‘naviyati, madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy qadriyatlarga e‘tibor kuchaydi. Bu ona yurtimizga ehtirom, avlod-ajdodlarimiz xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, andisha kabi insoniy fazilatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma‘naviy boyliklar sifatida tushunish, izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Ma‘lumki, qadriyatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra xilma-xildir. Ular orasida tabiiy, moddiy, ma‘naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qadriyatlar alohida ajralib turadi. Shunday bo‘lsada, qadriyatlarning eng oliysi insonning o‘zi, hayoti, xuquqi va erki, sog‘lom va farovon turmushi hisoblanadi. *“Inson qadr-qimmatini, sharafini ulug‘lash jamiyatimiz poklanishi va ravnaqining muhim omilidir”*¹¹.

G‘ulomxon G‘ofurov milliy an‘analarga bag‘ishlangan maqolalaridan birida milliy qadriyatlarning quyidagi ko‘rinishlarini tilga olgan: 1) tabiiy qadriyatlar; 2) iqtisodiy qadriyatlar; 3) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar; 4) ma‘naviy qadriyatlar; 5) axloqiy qadriyatlar. Ya‘ni, *“Ota-bobolarimiz ilm o‘rgatish bilan birga farzandlarimizga avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy-ma‘naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirganlar”*¹². *“O‘zbeklarning aksariyati... yaqin odamlarning, qo‘shnilarning omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajadagi ma‘naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”*¹³. *“Iqtisodiy qadriyat – iqtisodiy munosabatlar jarayonida shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatlarni hisobga olish, halollik, poklik, bag‘rikenglik, ishonchlilik kabi fazilatlarning amal qilinishini anglatadigan tushuncha”*¹⁴. Shuningdek, ma‘naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar hayotiy qadriyatlarning eng muhim omillari sifatida keltirilgan.

Mustaqillikdan so‘ng mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida keyingi vaqtlarda tarbiya masalasida qo‘lga kiritilgan

¹¹ Туланов Ж. Кадриятлар фалсафаси. - Т; “Ўзбекистан”, 1998. Б.333.

¹² Гофуров Ф. Миллий анъаналар//Халк сўзи, 1993 йил. 11 февраль, Б. 2.

¹³ Жалолов Д. Оила, маҳалла ва мактаб ҳамкорлиги. Тарбия. №2 (6), 2006. Б.13.

¹⁴ Кодирова О. Оилавий келишмовчиликлар. Тарбия №2 (6), 2006. Б. 22.

yutuqlarimiz qatorida oilada, maktab, mahalla va jamoat tashkilotlarida milliy, umuminsoniy qadriyatlarning, an'analarning ustuvorligiga erishildi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning *“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi g'oyada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”*, - degan fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida yetuk, barkamol etib tarbiyalashda barchamizga kuch-g'ayrat bag'ishlamoqda¹⁵.

Shuningdek, Safo Ochil o'zining *“Mustaqillik va tarbiya masalalari”* nomli risolasida milliy qadriyatlarimiz haqida jumladan shunday deydi. *“Milliy qadriyatlar otabobolardan bizgacha yetib kelgan udumlar: Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, Navro'z, urug'-don ekish va hosil bayramlari, beshik to'yi, sunnat to'yi, o'g'il uylantirish va qiz chiqarish bilan bog'liq to'ylar, uy-joy to'yi, qazo bilan bog'lik turli ma'raka-marosimlar, shuningdek, xalqning har xil an'analari - hashar, ota-onalarga hurmat, yoshlarga izzat, qariyalarga muruvvat, milliy odobaxloq me'yorlariga amal qilish, ilm olish, oila mustahkamligiga erishish, ustozlar qadriga yetish, vafot etganlar qabrini ziyorat etish, xalqqa muhabbat, Vatanni sevish va ardoqlash, askarlikka o'z ixtiyori bilan borish, baynalmilalchi bo'lish, muloyimlik va shirinsuxanlik va shu kabilarni o'z ichiga qamrab oladi”*¹⁶. Milliy qadriyatlarimizning asosi bo'lgan ma'naviyat va madaniyat o'quvchi yoshlarimizning ijtimoiylashuvida bo'lajak fuqarolarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularda insoniylik histuyg'ularini shakillantirishda xulq-atvorining go'zalligi, odob-axloqliligi, oliyanobliligi, va'dasiga vafodorligi, iboli-hayoliligi, bilim olishi, to'g'ri so'zligi, donoligi, bag'rikengligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg'uborligi, xushmuomalaligi va shu singari insoniy hislatlar muhim o'rin egallagan.

Yusuf Xos Hojibning *“Kishi uchun juda kerakli bo'lgan ikki a'zo bor: biri - til, boshkasi - yurak. «Til so'z uchun, yurak esa shu so'zdan lazzatlanishi uchun berilgan» degan fikr o'quvchilarimizni go'zal, chiroyli so'zlashga, ma'naviy barkamol, yuqori odob va ilm egasi bo'lishga undaydi. Mamlakatimizda yoshlarni milliy qadriyatlar asosida intellekti yuqori va vatanparvar qilib tarbiyalashga katta ahamiyat qaratib kelinmoqda. O'z davrida tarbiya masalasiga Abdurauf Fitrat*

¹⁵ Шавкат Мирзиёев. Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. “Ўзбекистон”, 2016. Б.146-486.

¹⁶ Сафо Очил. Мустақиллик ва тарбия масалалари. Т; “Ўзбекистон”, 1995. Б.5-6.